



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy. Faks: (+99875)221-12-88, qashqadaryo@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun

223-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati hokimligi

**Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish
va saqlash departamentiiga doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydonini
ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdag'i "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-sodan qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 16-apreldagi 232-sonli va Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va saqlash departamentining 2024-yil 2-maydag'i 127-sonli buyurtma xatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining ijobili xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobili xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahrisabz shahrining tarixiy qismini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va saqlash departamentiga shahardagi avtomobil ichki yo'llarini qurish (rekonstruksiya qilish) uchun egallab turgan 6,84 hektar shahar hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanimishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanimaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
223-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil "Tashabbusli budjet" doirasida ichki yo‘l obyektlari xatlovdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida
ma’lumot**

T/r.	Shahar nomi	MFY nomi	Yo‘l uzunligi (km)	Gektari
	Jami		11,4	6,84
1	Shahrisabz shahri	"Zargarlik" MFY va "Yangiobod" MFYlarni bog‘lovchi markaziy yo‘l	3,8	2,28
2		"Yashil diyor" MFY Ibratli ko‘chasi va Yangiobod MFY bilan tutashuvchi markaziy ko‘cha	3,8	2,28
3		"Majnuntol" MFY Majnuntol, Ammog‘on, Bog‘ibahor ko‘chalari	3,8	2,28